YIGITLARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA OILADAGI TARBIYANING O‘RNI

Nurumbekova Yarkinay Anarmatovna
Guliston davlat pedagogika instituti p.f.f.d (Phd), dotsenti.
Nishanbayeva Sevara Avazxanovna
Guliston davlat universiteti tayanch doktaranti
e-mail: **sevara.axmetova1979@gmail.com**

Anotatsiya: Hozirgi davrda jamiyatimizda oilaviy nizolarning soni ortib bormoqda buning, natijasida ajirimlar soni xam keskin kupayib bormokda. Ushbu maqolada yigitlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlash muammosi atroflicha bayon qilingan. Oila haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga oid sharq mutafakkirlarining qarashlari va zamonaviy yondashuvlar, shuningdek, oila borasidagi ijtimoiy-psixologik masalalar muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: oila, yigitlar, oila mustahkamligi, qadriyat, oilaga tayyorlash, jammiyat, oila psixologiyasi, tarbiya.

Abstract: in the current period, the number of family conflicts in our society is increasing due to this, as a result of which the number of ajirim is sharply decreasing. This article describes in detail the problem of psychological preparation of guys for family life. Views of Eastern thinkers and modern approaches to the formation of ideas about the family, as well as socio-psychological issues about the family, have been discussed.

Keywords: Family, Guys, family strength, value, preparation for the Family, Community, Family Psychology, upbringing.

O‘tmishga, bobo-momolarimizning hayotiga nazar tashlasak, oilada o‘g‘il bola tarbiyasiga alohida e’tibor berilgan. Bolaligidan oilaning suyanchi, kattasi, opa-singillarining himoyachisi bo‘lishini, qolaversa, Vatanning tayanchi ekanini uqtirib, shu asosda tarbiya berilgan. To‘g‘ri, ayol oilaning chirog‘i, iqboli. Farzandning sog‘lom, barkamol tug‘ilib voyaga yetishi ko‘p jihatdan unga bog‘liq. Shunday bo‘lsa-da, tarbiyada e’tiborni ikki jinsdagi farzandga ham teng qaratish zarur. Hatto, o‘g‘il bolalarga ko‘proq ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Chunki ayolning ayolday yurishini ta’minlaydigan erkaklar ekanligini hech qachon unutmasligimiz kerak. Bugun aksariyat yoshlarimiz bo‘sh qoldi deguncha darrov qo‘l telefoni bilan mashg‘ul bo‘lishi odatiy holga aylanib qoldi. Qandaydir o‘yin o‘ynaydi, qo‘shiq eshitadi, film tomosha qiladi, ijtimoiy tarmoqlardagi turli-tuman ma’lumotlar bilan tanishadi. Buning nimasi yomon, texnika davri, taraqqiyot dersiz? To‘g‘ri, buning yomon tomoni yo‘q. Tan olishimiz kerak, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ayniqsa, internet taraqqiyot darajamizni bir necha pog‘onaga ko‘tardi, uzog‘imizni yaqin, ishimizni yengil qildi.

Oilaviy munosabatlar nihoyatda murakkab va bir-biriga bog‘liq bo‘lib, qadim zamonlardan bashariyat ahlining diqqat markazida bo‘lgan. Bugungi kunda yigitlarni psixolgik jihatdan oilaviy hayotga tayyorlash va faoliyatning samarali tashkil etilishi bir qancha ijtimoiy muammolarning ijobiy hal etilishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi: -Jamiyatimizning ijtimoiy ma’naviy jihatdan rivojlanishini ta’minlaydi; - jamiyatimizning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining yuqori bosqichga ko‘tarilishida muhim ahamiyat kasb etadi; -mustahkam oilalarni shakllantirish, ularda sog‘lom psixologik muhitni qaror toptirish, oila tarbiyasini samarali tashkil etish, farzandlar tarbiyasida muayyan muvaffaqqiyatlarga erishish, oilaviy mojaro, ajrimlarning oldini olish uchun zamin hozirlaydi. Sharqda yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qadimdan jiddiy ahamiyat berilgan. Jumladan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Rizouddin Ibn Faxriddin kabi allomalar bu masala yo‘zasidan o‘zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgacha o‘z ahamiyatini

yuqotmagan. Ular «Nasixatnoma», «Pandnoma», «Hikmatnoma» tarzida bizgacha yetib kelgan. Bu manbaalarda qizlarni hayotga tayyorlashda, ularda birinchi navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo‘lishi, oila muqaddas, uni avaylab asrash aynan uy bekalariga bog‘liq ekanligi haqida turli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan xodisalar hikoya qilinadi.

«Kaykovus Unsurulmaoni – 63 yoshida o‘g‘liga atab «Qobusnoma» yozib, unda o‘zining bola tarbiyasi, oilaviy hayot, shaxs kamoloti masalalarini bayon etdi. Mamlaktimizning yetakchi psixolog olimlaridan biri Vasila Karimova “Oila ma’rifati” ushbu risola muallifining “Oila ma’rifati” ruknida chop etilayotgan risolalarining dastlabkisi bo‘lib, bu bevosita oilaviy hayot bo‘sag‘asida turgan yoshlar hamda endigina nikoh qurib, yaxshi niyatlar bilan turmush qurgan kuyov va kelinchaklarga mo‘ljallangan. Unda asosiy e’tibor oila ilmining mazmun mohiyati, oila 6 ma’rifatini tashkil etuvchi omillar va baxtli hayot kechirishni aslida hammaga ma’lum bo‘lgan, lekin amalda har doim ham egallash oson bo‘lmagan jihatlarga qaratilgan. Muallif “Oila ma’rifati”ga erishish, ya’ni kelin-kuyovlar, yoshlar hamda ularning ota-onalar savodxonligini oshirish orqali, oilaviy muhitda ma’naviy qadriyatlarni barqarorlashtirishga erishishni ko‘zda tutgan. A.Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir”, degan fikri o‘zbekning kun tartibidan tushmasligi lozim. Chunki avvalgiga o‘xshab qariyalar keksalar yoshlarni odob axloqqa chaqirib yoshlar esa ularni hurmatlab, ularning o‘gitiga amal qilish udumi yo‘qolib bormoqda. Har kim o‘zi bilan ovora birovning gapi birovga yoqmaydi. Yosh yigitlarda umr yo‘ldosh tanlashda sevgi tushunchasi faqat 4 o‘rinda, ya’ni xurmat qilish, ishonch, bir-birini tushunish kabi xislatlardan keyin turadi. Yoshlar oilani jiddiy qabul qilmaydilar. Natijada juda ko‘p xatoliklarga yo‘l qo‘yadilar, keyinchalik oilaning muhimligini psixologik tan oladilar. Bizning asosiy vazifamiz shuki, yigitlarda oilaning qadrini, sevgi, nikoh oiladagi sevgini ro‘li muhimligini va u uzoq va baxtli hayot garovi ekanligini uqtirishdir. Oilaviy hayot o‘z o‘rnini shaxsiy manfaatlarga, martaba, o‘z-o‘zini rivojlantirish, sayohatlarga borishga bo‘shatib berdi. Bugungi kun voqeligi odamlarning na siyosiy, na ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda hech qanday inqirozli vaziyatlarda ham yo‘q bo‘lib ketmaydigan shunday mustahkam, muhim qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyojini sezmoqda. Insonga bunday qimmatbaho manbani berish faqat shaxsiy sohaning ustunlari bo‘lishi mumkin: sevgi, do‘stlik tuyg‘usi va, albatta, oila bu borada ustuvor o‘rinni egallaydi.

Oila va oilaviy munosabatlarni yaratish, rivojlantirish va saqlashga tayyorlik shaxsiy rivojlanish potentsialida namoyon bo‘ladi va eng muhimi, bu kattalarning shaxsiy kamolotidir. Bu shaxsiy kamolotga erishish mumkin va bu aniq, oilaviy hayotda, chunki shaxsning etukligi namoyon bo‘ladigan faoliyatdir. Agar insonning oilasi farovon bo‘lsa, jamiyat nuqtai nazaridan u ishonch va hurmat pozitsiyasidan qabul qilinadi. Jamiyat va davlat hayoti uchun zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlar nuqtai nazaridan Vygotskiyning so‘zlariga ko‘ra, nikohga tayyorgarlik muammosining ahloqiy tomoni oilaviy hayotga psixologik tayyorgarlik kontekstida ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishi kerak, uni amalga oshirish natijasi yigitlarning his-tuyg‘ularini va his-tuyg‘ularini boshqarishga yordam beradigan ko‘nikmalarni shakllantirish, ularning tashqi ifodasi orqali o‘z-o‘zini tartibga solish usullarini egallash kerak. Yigitlarda mehr-muhabbat tuyg‘usini to‘g‘ri anglash va bu tuyg‘ularga integratsiyalashgan mas'uliyat hissini shakllantirish lozim.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda yosh yigitlarga, ularning ilm olish va kasb-xunar egasi bo‘lishiga katta e’tibor berilmoqda. Lekin bularning o‘zi yosh yigitlarning kelgusi hayotlarining farovon bo‘lishligi uchun yetarli darajada emas, balki ularga oilaviy hayot saboqlaridan psixologik bilim va tushunchalardan keng va yetarlicha ma’lumot berish davr talabiga aylanib bormoqda. Yoshlarimizni ona vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida, yuksak ma’naviyatli va salohiyatli qilib tarbiyalash har birimizning ishimiz. Ayniqsa, internet tarmoqlarida tarqatilayotgan diniy aqidaparastlik, terrorizm g‘oyalarini yoyish, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishlarini yoshlar ongiga singdirish, ularning turmush tarziga aylantirishga bo‘layotgan urinishlarga, yoshlarimizning ana shu illatlar ta’siriga tushib qolmasliklari, yuqoridagi kabi aldovlarga ko‘r-ko‘rona ergashmasliklari uchun eng avvalo, ularning bilim va tafakkurini boyitish, internet ma’lumotlaridan o‘rinli va oqilona foydalana bilish ko‘nikmasini shakllantirishimiz zarur.

Chunki sog‘lom psixologik muhit qaror topgan oiladagina barkamol va yurt koriga yaraydigan kelajak avlodni voyaga yetkazish mumkin. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, bu masalaga e’tibor qaratishimiz davr talabiga aylanib o‘z dolzarbligini amaliy hayot tajribasida nmayon etmoqda. 2021 yil statistik ma’lumotlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak 11 oyda 30000 ming oilani ajrashishi bu millat taqdir va davlat kelajagiga katta hafv ekanligini xar bir sog‘lom fikr egasi anglab turibdi. Ajaralgan har bir oilaning 2 nafar farzandi bor deb oladigan bo‘lsak 60000 ming nafar bolalar noto‘liq oilada voyaga yetadi. Bu holat bolaning psixikasiga juda yomon ta’sir qilishi tabiiy hol. Biz bugungi kunda maktab va jamiyat hayotida tarbiyasi og‘ir bolalarni sonini keskin kam paytirish borasida sa’y harakatlarni olib borishimiz samarasiz bo‘lib qolishiga olib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akhmedov B. Uzbek nation. T., Public Heritage Publishing House named after Abdullah Qadiri, 1992, p. 121.
2. Eshnaev N.J., Maratov T.G‘., Mirzaraximova G. (2020). O‘zbek milliy kino san’ati va madaniyatida psixoprofilaktik xizmat tizimini joriy etish masalalari. Oriental Art and Culture 03. 156-165. 9
3. Samarova Shoxista Rabidjanovna, Rakhmonova Muqaddas Qahramanovna, Mirzarahimova Gulnora, Ikromovna, Maratov Temur Gayrat ugli, Kamilov Bobir Sultanovich. (2020). Psychological aspects of developing creative personality and the concept of reduction of creativity to intellect. JCR. 7(17): 498-505. doi: 10.31838/jcr.07.17.69
4. Подготовка учащихся к семейной жизни и сопутствующему образованию: методика обучения. мат-ли / авт.-сост. А.А. Фомарова [ИА]. - Фогилев: «ime. Кулешова А.А. ", 2012. - 52 с.
5. Karimova O. “Oila huquqi asoslari” -t.: 2003.
6. Maratov Temur Gayrat ugli (2019) Scientific theoretical problems of perfect human category in the psychology. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 7(8). 16-22.
7. Ремерикова Н.Н. Равенство в семейной жизни: структура и содержание. Мемерикова // Документы и выходы. - 2009. - № 9. - С 61–67.